



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-yanvar

12-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori ijrosi haqida” 7-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori ijrosi haqida” 7-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori ijrosi haqida” 7-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 893-son qarori bilan:

quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan vasiylik va homiylik organi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash, muqobil joylashtirish shakllariga yo‘naltirish va ularning hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil joylashtirish shakllariga olish istagini bildirgan fuqarolarni tanlash, hisobini yuritish hamda muqobil joylashtirish shakllariga berilgan bolalarni kuzatish va monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan vasiylik va homiylik belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka olish tartibi to‘g‘risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tutingan (foster) oila g‘amxo‘rligiga berish tartibi to‘g‘risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;

farzandlikka oluvchilar va tutingan ota-onalarni tayyorlash kursini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 7-ilovaga muvofiq;

bolalar uylari to'g'risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq;
mehribonlik uylari to'g'risidagi nizom 9-ilovaga muvofiq;
kichik hajmli bolalar uylari to'g'risidagi nizom 10-ilovaga muvofiq;
"Yoshlarga hamrohlik" dasturini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom 11-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olgan tutingan ota-onalarga har oylik to'lovlar to'lash hamda bolalarni kiyim-bosh va poyabzal bilan ta'minlash xarajatlari:

2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar budjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari hisobidan;

2025-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik)ga respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi;

shunday tartib o'rnatiladiki, unga muvofiq 2025-yil 1-fevraldan boshlab:

a) ichki ishlar organlari, sog'liqni saqlash organlari, notariuslar, sud organlari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari hamda ta'lim muassasalari yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni Agentlikka taqdim etishi;

b) bolalarni muqobil joylashtirish shakllariga olishni xohlovchi shaxslar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari (keyingi o'rinlarda - "Inson" markazlari)ga bevosita kelgan holda yoki ijtimoiy xodim yoxud O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda - YAIDXP) orqali quyidagi hujjatlarni takdim etishi:

ariza (ariza er-xotindan biri tomonidan berilsa, ikkinchisining roziligi arizaga ilova qilinadi, YAIDXP orqali murojaat qilingan taqdirda, tegishli rozilik uni berayotgan shaxs tomonidan masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (elektron raqamli imzo, Mobile-ID, Face-ID yoki boshqa) texnologiyalari orqali tasdiqlanishi);

sog'lig'i to'g'risida davlat muassasasi (vrachlik-maslahat komissiyasi)ning xulosasi, sil kasalligiga qarshi kurashish va teri-tanosil dispanseridan olingan ma'lumotnomalar;

farzandlikka olish yoki tutingan ota-ona bo'lish istagidagi shaxslar farzandlikka oluvchilar va tutingan ota-onalarni tayyorlash kursidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat nusxasi (bundan nomzod (lar)ning Agentlik huzuridagi Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazida farzandlikka oluvchilar va tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslaridan o'tganligi mustasno);

d) quyidagi hujjatlar va ma'lumotlar "Inson" markazlari tomonidan mustaqil ravishda "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olinishi:

shaxsni tasdiqlovchi hujjat haqidagi ma'lumotlar;

nikoh to'g'risidagi ma'lumotnoma (agar nikohda bo'lsa);

sudlanganlik (sudlanmaganlik) holati haqida ma'lumotnoma;

turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar;

tarbiyaga olishni xohlovchi shaxs (oila)ning to'lov qobiliyatini baholash natijalari bo'yicha ma'lumot. Shaxs (oila)ning to'lov qobiliyati to'g'risidagi ma'lumot maxsus tizim orqali belgilangan mezonlar asosidagi skoring baholash natijalariga ko'ra avtomatlashtirilgan holda shakllantirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son Farmoniga muvofiq 2025-yil 1-fevraldan boshlab:

bolalarni muqobil joylashtirish shakllari bo'yicha joylashtirish (bundan farzandlikka va tutingan (foster) oilaga olish mustasno) "Inson" markazlarining, oilaviy bolalar uyini tashkil etish va tugatish esa Agentlik hududiy boshqarmasining qarori asosida amalga oshirilishi;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tutingan (foster) oilaga "Inson" markazlari va bolani tarbiyaga olgan shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida joylashtirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilab qo'yilishicha, 2025-yil 1-fevraldan boshlab tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar masalalari bo'yicha vasiylik va homiylik bo'yicha komissiyalar faoliyati tugatilishi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 12-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 13-ilovaga muvofiq ba'zi qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishi;

belgilanishicha;

mazkur qarorga 5-, 7-, 10 va 11-illovalar 2025-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirishi;

mazkur qarorga 2-, 3-, 4-, 6-, 8 va 9-illovalar 2025-yil 1-fevraldan boshlab kuchga kirishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (E.Abduraxmanov) hamda manfaatdor bo'lim va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov